

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 8 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

#### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Baxranov Sherzod*

|                                                                                                                                                                       |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| O'ZBEKISTON SSRDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH BILAN BOG'LIQ<br>MUAMMOLARNI YECHIMINI TOPISHDA BUTUNITTIFOQ PAXTACHILIK<br>ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI O'RNI ..... | 10-16 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Bazarbayeva Nilufar Anorbayevna*

|                                                                                            |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| MILLIY HUNARMANDCHILIK: USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARNING<br>TRANSFORMATSION JARAYONLARI ..... | 17-21 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Sattarova Marhabo Mamatovna*

|                                                                                                |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY<br>JARAYONLARIGA TA'SIRI ..... | 22-30 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Raxmatov Mirjon*

|                                                                   |       |
|-------------------------------------------------------------------|-------|
| BUXORO VILOYATIDA BOJXONA TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN ..... | 31-38 |
|-------------------------------------------------------------------|-------|

*To'xtasinov Mira'zam*

|                                                                         |       |
|-------------------------------------------------------------------------|-------|
| SOMONIYLAR DAVLATI: HARBIY ISLOHOTLAR VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI ..... | 39-42 |
|-------------------------------------------------------------------------|-------|

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kuliboyev Azamat Shonazarovich*

|                                                           |       |
|-----------------------------------------------------------|-------|
| DAVLAT SEKTORIDA HISOBNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... | 43-48 |
|-----------------------------------------------------------|-------|

*Azgarov Abdumutalib*

|                                                                                               |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| INTERNET-MARKETINGNING UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA<br>QO'LLANILISHI HOLATI TAHLILI ..... | 49-56 |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

|                                                                                          |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| IMPACT OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT CLIMATE:<br>INTERNATIONAL EXPERIENCE ..... | 57-60 |
|------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Otabekov Javdod*

|                                                                                                                                        |       |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| GO'SHT YETISHTIRISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI"<br>IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI ..... | 61-68 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Navruzov Dilshod Ismatullayevich*

|                                                                                                                                |       |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| AKSIYADORLIK JAMIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI<br>TAKOMILLASHTIRISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASH ..... | 69-74 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Uralov Temur Boxodir o'g'li*

|                                                                                                                              |       |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|
| ENERGETIKA KORXONALARI AUDITI NATIJALARINI Hujjatlashtirish<br>VA AUDITORLIK HISOBOTINI TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... | 75-81 |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|

*Samandarov Og'abek*

|                                                                                   |       |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-------|
| ENERGIYA XAVFINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ARDL<br>MODELINING AHAMIYATI ..... | 82-86 |
|-----------------------------------------------------------------------------------|-------|

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yuldashev Rustam Daniyrovich*

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA FALSAFIY TARBIYANING JAMIYAT

RIVOJLANISHIDAGI O'RNI ..... 87-93

*Adilov Zafar Yunusovich*

ATROF-MUHIT TA'LIMI VA EKOLOGIK ONG: BARQAROR KELAJAK SARI YO'L ..... 94-98

*Berdikulova Surayyo Aslamovna*

IJTIMOIIY ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI ME'YORLARINING SHAKLLANISHI ..... 99-104

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*

ZAMONAVIIY O'ZBEKISTON JAMIYATI SHAROITLARIDA TA'LIM MADANIYATI ..... 105-113

*Yarbaev Xasan Xazratqulovich*

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASH:

MILLIIY VA GLOBAL XAVFSIZLIK KONTEKSTIDA TAHLIL ..... 114-118

*Maxsudjonov Kamronjon*

MA'RIFIY TASHKILOTLAR TIZIMINING SHAXS MA'NAVIIY MADANIYATIGA

TA'SIRINING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI ..... 119-123

*Qo'chqarov Oybek G'ulomovich*

INDUSTRIYA 4.0 DAVRIDA TA'LIM VA KASB-HUNAR INTEGRATSIYASI:

IJTIMOIIY-FALSAFIY YONDASHUV ..... 124-128

*Otaqulov Elyor Madiyrovich*

EKOLOGIK KONFLIKTNING FALSAFIY MOHIYATI ..... 129-136

*Mamatqulov Rashid Pazilbekovich*

TUSHUNCHA USTIDA MANTIQUIY AMALLAR ..... 137-141

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Niyazov Ravshan Turakulovich*

SKOTT TUROVNING "AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI" ROMANIDA DIALOGLAR

XUSUSIYATI VA PERSONAJLAR XARAKTERISTIKASI ..... 142-148

*Yunusova Xilola Ravshan qizi*

KONSEPTUAL INTEGRALLASHUV: O'ZBEK TILIDAGI

"V+(I)B YURA TURMOQ" ANALITIK ASPEKTUAL QURILMA TAHLILI MISOLIDA ..... 149-154

*Absalamova Gulmira Sharifovna*

LINGVOSEMANTIK YONDASHUVDA ADABIY-LUG'AVIIY TERMINLARNING

NAZARIY TAHLILI: KRIS BOLDIK LUG'ATI ASOSIDA ..... 155-158

*Dadajanova Aziza Karimullayevna*

THE ROLE OF CULTURAL CONTEXT IN TRANSLATION:

A CROSS-CULTURAL PERSPECTIVE ..... 159-170

*Bahromjonova Shahnoza Xolmatovna*

YAPON XALQ ERTAGIDA TURFA VARIANTLILIK HAMDA ERTAKDAGI

RAMZIIY MA'NOLAR: "MOMOTARO" (SHAFTOLIDAN TUG'ILGAN BOLA)

ERTAGI MISOLIDA ..... 171-175

*Babajanova Iqbol Salomaddinovna*

SHAXS OTLARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

|                                                                                                                                                                                                          |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>To'xtayeva Sarvinoz</i><br>DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ETNONIMLARNING O'RGANILISHI .....                                                                                                          | 181-184 |
| <i>Ayimbetova Damekhan Maksetbay qizi</i><br>TED XYUZ VA IBRAYIM YUSUPOV SHE'RIYATIDA POETIK ILHOM<br>MANBALARI QIYOSI .....                                                                             | 185-189 |
| <i>Ismatullayeva Nargiza, Qosimova Malika Xurshidovna</i><br>CHALLENGES AND INNOVATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETER TRAINING<br>IN CHINESE UNIVERSITIES: THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN PEDAGOGY ..... | 190-195 |

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

|                                                                                                                                                           |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>O'rinboyev Rustamjon</i><br>A SOCIO-LEGAL ANALYSIS OF THE EVERYDAY TRANSNATIONAL LIVES<br>OF UZBEK MIGRANTS IN RUSSIA .....                            | 196-206 |
| <i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i><br>YER NIZOLARINI SUDLARDA KO'RISH TARTIBI .....                                                                         | 207-212 |
| <i>G'ofurova Dilafruz</i><br>AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN HAYOTGA QARSHI JINOYATLARNING<br>KRIMINALISTIK TAVSIFI: NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLAR ..... | 213-218 |
| <i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i><br>PROKUROR TAQDIMNOMASI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI<br>BARTARAF ETISH MASALALARI .....                         | 219-223 |
| <i>Juraeva Asal</i><br>OBSTACLES IN ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN .....                                                                              | 224-228 |
| <i>Ходжаева Ширин</i><br>ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И ОБЪЁМ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОСУБЪЕКТНОСТИ<br>СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ ООН В СФЕРЕ ОХРАНЫ ЗДОРОВЬЯ .....      | 229-239 |
| <i>Imomniyozov Doniyorbek</i><br>SUN'IY INTELLEKT SOHASIDA ALGORITMIK JAVOBGARLIK:<br>IJTIMOIY, HUQUQIY VA TASHKILIY YONDASHUVLAR .....                   | 240-250 |
| <i>Asadov Shahriddin Faxriddinovich</i><br>XIZMATLAR TUSHUNCHASINING HUQUQIY VA IQTISODIY TAHLILI:<br>SIVILISTIK DOKTRINA NUQTAI NAZARIDAN .....          | 251-254 |
| <i>Суннатиллаева Сарвиноз</i><br>АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕГУЛИРОВАНИЯ АНТИДЕМПИНГОВЫХ И<br>КОМПЕНСАЦИОННЫХ ПОШЛИН В РАМКАХ ВТО И УЗБЕКИСТАНА .....           | 255-262 |
| <i>Anarbayev Eldor</i><br>KONSESSIYALARNI XORIJIY DAVLATLARDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH .....                                                               | 263-269 |
| <i>Ibrohimov Azimjon</i><br>KORPORATIV IMKONIYATLAR DOKTRINASI:<br>XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY QONUNCHILIK .....                                            | 270-278 |

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

|                                                                                                                                  |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Qurbonov G'ulomjon G'afurovich</i><br>RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING METODLARI,<br>SHAKLLARI VA VOSITALARI ..... | 279-285 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|



|                                                                                                                                                                                                                                    |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Safarova Nigora Nasilloevna</i><br>TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI<br>VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI .....                                                                     | 286-293 |
| <i>Muxammadjonov Muslimbek</i><br>OLIY TA'LIMDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI ...                                                                                                                           | 294-302 |
| <i>Khabibullaeva Dilshoda</i><br>FUNCTIONS OF CODE-SWITCHING IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING<br>CLASSROOMS IN UZBEKISTAN .....                                                                                                        | 303-309 |
| <i>Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi</i><br>INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI<br>RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI .....                                                                               | 310-314 |
| <i>Hamidov Sherhali Shirinovich</i><br>BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY<br>TA'LIM TALABLARI VA YO'NALISHLARI .....                                                                                     | 315-320 |
| <i>Sattoriy Shohruh</i><br>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT<br>QILISH MEXANIZMLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                               | 321-325 |
| <i>Tadjiyeva Nodira Yusupjanovna</i><br>TALABALARDA MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA<br>KOMMUNIKATSIYA JARAYONINING AHAMIYATI .....                                                                                           | 326-331 |
| <i>Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna</i><br>"NURLI MASKAN" TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI IJTIMOY<br>HAYOTGA TAYYORLASH BO'YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK ISHLARNING<br>TASHKIL ETILISHINI O'RGANISH VA NATIJALAR TAHLILI ..... | 332-336 |
| <i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i><br>TO THE CONTENT OF PRACTICAL CLASSES ON THE MODULE<br>"DECISION SUPPORT SYSTEMS" OF THE ACADEMIC DISCIPLINE<br>"INFORMATION TECHNOLOGIES IN MANAGEMENT" .....                            | 337-341 |

**Received:** 20 July 2025  
**Accepted:** 5 August 2025  
**Published:** 10 August 2025

*Article / Original Paper*

## **THEORETICAL FOUNDATIONS OF TRANSFORMATIONAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR CONNECTION WITH THE COMPETENT APPROACH**

**Safarova Nigora Nasilloeyevna**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor  
Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs  
Department of General Education Sciences

**Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations of transformational educational technologies and reveals their connection with the competency-based approach. Transformative education serves the formation of such competencies as changing the thinking paradigm of the student, in-depth learning based on reflection, as well as independent decision-making in real-life situations. Combining a competency-based approach with transformational educational technologies is an important tool for improving the quality and effectiveness of education. The study used methods of conceptual analysis, comparison, and theoretical modeling.

**Keywords:** transformative education, competency-based approach, reflection, pedagogical technologies, innovative learning.

## **TRANSFORMATIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING KOMPETENTLIK YONDASHUVI BILAN BOG'LIQLIGI**

**Safarova Nigora Nasilloeyevna**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
IIV Buxoro akademik litseyi  
"Umumta'lim fanlar" kafedrası boshlig'i  
Email: [safarovanigora2211@gmail.com](mailto:safarovanigora2211@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada transformativ ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari tahlil qilinadi va ularning kompetentlik yondashuvi bilan qanday bog'liq ekani ochib beriladi. Transformativ ta'lim o'quvchining fikrlash paradigmasini o'zgartirish, refleksiya asosida chuqur o'rganish, shuningdek, real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kompetentlik yondashuvi bilan transformativ ta'lim texnologiyalarining uyg'unligi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotda konseptual tahlil, taqqoslash, nazariy modellashtirish usullari qo'llanilgan.

**Kalit so'zlar:** transformativ ta'lim, kompetentlik yondashuvi, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion o'qitish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I82025N43>

### **Kirish.**

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va kreativ shaxs sifatida shakllantirishga intilmoqda. XXI asrda ta'limning asosiy vazifalaridan biri — inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning innovatsion salohiyatini ochish va uni global muhitda raqobatbardosh etib tarbiyalashdir. Bu esa nafaqat o'quv dasturlarini yangilashni, balki pedagogik yondashuvlarning o'zgarishini ham taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan

qaraganda, transformativ ta'lim konsepsiyasi zamonaviy ta'lim falsafasida alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Transformativ ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra o'quvchining tafakkur paradigmasini o'zgartirish, uning mavjud bilimlarini qayta ko'rib chiqishga undash, shuningdek, refleksiya orqali yangicha dunyoqarash shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir [1; 5-b]. Bu konsepsiya ilk bor Jek Mezirov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u transformativ o'rganishning asosiy komponenti sifatida **shaxsiy tajriba asosidagi reflektiv tahlil**ni ilgari surgan. O'quvchi muayyan bilim yoki hodisani o'zining ilgari shakllangan tushunchalari bilan solishtirib, muqobil yondashuvlar va qarashlarni shakllantiradi. Bu jarayon esa chuqur o'rganish va intellektual o'sishga xizmat qiladi.

Transformativ ta'lim texnologiyalari o'quvchilarga chuqur o'rganish, o'z-o'zini baholash, mustaqil qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [2; 43–45-b]. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchining o'quv jarayonida passiv ishtirokchidan faol subyektga aylanishiga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'limdagi konstruktivistik tamoyillarga hamohangdir.

Transformativ yondashuv kompetentlik yondashuvi bilan uzviy bog'liqdir, chunki har ikki konsepsiya shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayanadi. Kompetentlik yondashuvi ta'lim jarayonida faqat bilimni emas, balki uning amaliy qo'llanilishini, o'zaro aloqalar, madaniy muloqot, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni ham nazarda tutadi [3; 26–27-b]. Transformativ ta'lim bu kabi kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay muhit va pedagogik sharoit yaratadi. Ayniqsa, u o'quvchining **o'zini anglash, mustaqil tanlov qilish, tanqidiy baholash** kabi yuqori darajadagi metako'nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu jihatdan, transformativ ta'lim va kompetentlik yondashuvining uyg'unlashuvi – bugungi ta'limda kerakli bilim, ko'nikma va munosabatlar integratsiyasiga erishishning eng samarali yo'llaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada aynan shu ikki yondashuvning nazariy asoslari, o'zaro uyg'unlik mezonlari va ta'lim amaliyotidagi o'rni chuqur tahlil qilinadi.

Hozirgi davrda oliy ta'lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki talabani mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qila oladigan, zamonaviy raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga qaratilmoqda. Shu bois transformativ ta'lim konsepsiyasi va kompetentlik yondashuvi oliy ta'lim muhitida alohida ahamiyat kasb etmoqda [1; 6–8-b].

### **Adabiyotlar tahlili.**

Ushbu tadqiqot transformativ ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rganish va ularni kompetentlik yondashuvi bilan bog'lash bo'yicha tizimli ilmiy izlanishdir. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanib amalga oshirildi:

- ✚ **Konseptual tahlil** – transformativ o'rganish nazariyasi, shaxsiy o'zgarishlar orqali o'rganish (Mezirov modeli), refleksiya, kritikal tafakkur hamda kompetentlik yondashuvining nazariy asoslari puxta o'rganildi. Bu bosqichda J. Mezirov, P. Freyre, D. Kolb, J. Brookfield kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi. Ularning ilmiy qarashlari asosida transformativ yondashuvning asosiy komponentlari, bosqichlari va shart-sharoitlari aniqlab olindi [1; 6–10-b].
- ✚ **Komparativ tahlil (taqqoslash metodi)** – an'anaviy va transformativ ta'lim texnologiyalari o'rtasidagi farqlar, ularning didaktik imkoniyatlari, o'quvchi shaxsiga ta'siri, kompetensiya shakllanishidagi roli jihatdan qiyosiy tahlil qilindi. Transformativ ta'lim subyektga yo'naltirilgan, reflektiv, interaktiv va tajriba asosida shakllanuvchi

texnologiya sifatida baholandi, an'anaviy yondashuv esa ko'proq bilimni yetkazishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflandi.

- ✚ **Nazariy modellashtirish** – olingan ilmiy dalillar asosida transformativ ta'lim va kompetentlik yondashuvining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Bu model o'quvchi shaxsining rivojlanish bosqichlari, o'rganish jarayonining reflektiv strukturasi, va o'qituvchining metodik funksiyalarini o'z ichiga oladi. Modellashtirish orqali transformativ-kompetentlikli ta'lim muhiti qanday shakllanishi mumkinligi ko'rsatildi.
- ✚ **Empirik dalillarga tayangan holda tahlil** – mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar natijalari asosida transformativ yondashuvning amaliy natijalari, o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari, zamonaviy pedagogik tajriba almashinuvi materiallari asos bo'lib xizmat qildi [4; 45–47-b].

Ushbu metodik yondashuvlar birgalikda transformativ ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, amaliy qo'llanilish holatlarini ko'rsatish va ularni kompetentlik yondashuvi bilan bog'liq holda tizimlashtirish imkonini berdi.

Transformativ ta'lim texnologiyasi Mezirov (1997) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'rganuvchining tajriba asosidagi o'zgarishi va reflektiv tafakkur orqali yangi dunyoqarash shakllanishiga urg'u beradi. Oliy ta'lim muhitida bu yondashuv talabalarni mustaqil izlanishga, tanqidiy fikrlashga va ijtimoiy mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga o'rgatadi [2; 9–10-b]. Shuningdek, kompetentlik yondashuvi oliy ta'limda chiqish profillari (exit profile), malaka mezonlari va kasbiy tayyorgarlikning barqaror modeli sifatida qaralmoqda [3; 45-b]. Talabaning bilim, ko'nikma va munosabatlarini bir butunlikda rivojlantirishda bu yondashuv asosiy vosita hisoblanadi [4; 48–50-b]. Taylor, Freire, Kolb, va boshqa olimlar fikricha, oliy ta'limda transformativ o'rganishni qo'llash orqali talabaning ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari yanada chuqur shakllanadi [5; 12-b].

Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muhitida transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi integratsiyasi quyidagi asosiy metodlar orqali o'rganildi: konseptual tahlil, nazariy modellashtirish, empirik tahlil hamda komparativ yondashuv. Tahlillar Slippery Rock universitetida amalga oshirilgan transformativ hamkorlik darslari, Yevropa universitetlaridagi kompetensiyaga asoslangan dasturlar tahliliga asoslandi [6; 39–42-b].

### **Muhokama.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o'rtasida bevosita metodik va maqsadga yo'naltirilgan uyg'unlik mavjud. Ikkala yondashuv ham o'quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki o'rganish jarayonining faol, mas'uliyatli ishtirokchisi sifatida ko'radi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Transformativ ta'limda o'z-o'zini anglash, refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlari markaziy o'rinni egallaydi, bu esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas'uliyatni oshirish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga imkon yaratadi [2; 45-b]. Shuningdek, transformatsiyalash jarayoni nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchilar faoliyatida ham sezilarli o'zgarishlarni talab qiladi. O'qituvchilar ta'lim mazmuni va shaklini yangilash, pedagogik yondashuvlarni moslashtirish, shuningdek, o'quvchini baholash va rag'batlantirishda shaxsiylashtirilgan yondashuvni qo'llashga majbur bo'ladilar. Bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga olib keladi, yangi metod

va texnologiyalarni o'zlashtirishni talab qiladi. O'qituvchi endi nafaqat ma'lumot beruvchi, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi va mentor sifatida faoliyat yuritadi [4; 47-b].

Transformativ yondashuv orqali o'quvchilarni faqat akademik bilimlar bilan cheklab qolmay, balki ularni ijtimoiy, kommunikativ, axborot, madaniy va fuqarolik kompetensiyalar bilan qurollantirish mumkin. Bu kompetensiyalar zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va faol fuqarolik pozitsiyasini egallash uchun zarurdir. Shu bois, transformativ ta'lim ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo muloqot va axborot asrida samarali faoliyat ko'rsatish qobiliyatlarini shakllantiradi [5; 46–48-b]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, transformativ ta'lim texnologiyalarining kompetentlik yondashuvi bilan uyg'unligi ta'lim jarayonini zamonaviy talablar darajasiga ko'taradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi hamda shaxsning professional va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, mazkur yondashuvlarni birlashtirib, ta'lim siyosati va amaliyotiga joriy etish ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muhitida transformativ ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali talabalar real loyihalarda faol ishtirok etishadi, o'z bilim va ko'nikmalarini ijtimoiy kontekstda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, talabalarning raqamli va kommunikativ kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlanadi [7; 51-b]. Olib borilgan tahlillar transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o'rtasida chuqur metodologik va maqsadga yo'naltirilgan uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, **oliy ta'lim tizimida** transformativ yondashuvlar o'quv jarayonining mazmuni va shaklini yangilashda, talabalarni kasbiy, ijtimoiy va axborot-kommunikativ jihatdan rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarni faqat an'anaviy bilim oluvchilar emas, balki o'z o'rganish jarayonining subyekti sifatida faol ishtirok etuvchilar darajasiga olib chiqadi. Bu yondashuvda talabaning mavjud bilim va tajribasi tanqidiy tahlil qilinadi, yangi mazmunga ega tajriba bilan qayta interpretatsiya qilinadi, natijada talabaning **fikrlash, anglash va harakat qilish strategiyasi** transformatsiyaga uchraydi [1; 8–9-b].

Kompetentlik yondashuvi esa oliy ta'limda **“bilim + ko'nikma + munosabat”** uchlik asosida o'quvchining natijaviy faoliyatini baholashni ta'minlaydi. Bu komponentlar transformativ ta'lim modelida to'liq ifodalanadi, chunki unda o'quvchi mustaqil qaror qabul qilish, o'zini baholash, ijtimoiy mas'uliyatli yondashuv asosida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi [3; 45–47-b].

Muhokamali asoslardan biri — transformativ ta'limning **interaktiv metodlar orqali kompetensiyani shakllantirishdagi roli**. Jumladan, loyiha asosida o'qitish, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar, reflektiv esselar va guruhiiy bahs-munozaralar orqali talabalar nazariy bilimlarini real hayotiy kontekstda tatbiq etishni o'rganadilar. Bu yondashuv Mezirov, Kolb va Freire tomonidan ilgari surilgan tajriba asosida o'rganish (experiential learning) tamoyillariga tayanadi [2; 46-b; 4; 27–28-b].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, transformativ ta'lim modeli **raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda ham** samarali hisoblanadi. Masalan, raqamli platformalarda muammoli topshiriqlarni bajarish, onlayn hamkorlik va raqamli refleksiya vositalaridan foydalanish orqali talabalar o'zlarining digital literacy darajasini sezilarli darajada oshirishmoqda [5; 50–51-b]. Bu esa bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'limning

amaliy yo'nalishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, transformativ ta'lim texnologiyalarini amalga oshirishda **pedagoglarning professional tayyorgarligi muhim omil** sifatida ajralib turadi. O'qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki murabbiy, yo'naltiruvchi va refleksiyaning rag'batlantiruvchi subyektga aylanishi zarur. Bu esa o'qituvchilarning o'zlarida ham tanqidiy tafakkur, refleksiya va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni chuqur egallashni talab etadi [4; 47-b].

Yevropa oliy ta'lim makonidagi tajribalar (masalan, Germaniya, Finlyandiya, Estoniya OTMlarida) transformativ o'rganish elementlari asosida shakllangan kompetentlik modelining muvaffaqiyatli ishlashini ko'rsatmoqda. O'zbekiston oliy ta'limida ham mazkur modelni bosqichma-bosqich joriy etish zarurligi ko'zga tashlanadi. Bu nafaqat o'quv dasturlarining sifatini oshiradi, balki bitiruvchilarning mehnat bozoriga tayyorgarlik darajasini ham yaxshilaydi [5; 46–48-b]

### **Natijalar.**

Olib borilgan nazariy va empirik tahlillar natijasida transformativ ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, kompetentlik yondashuvi bilan bog'liqligi hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar orqali namoyon bo'ldi:

- ✓ **Birinchidan**, transformativ ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchining avvalgi bilim va tajribasi tahlil qilinib, u yangicha nazar bilan ko'rib chiqiladi. Bu jarayon o'quvchining o'z fikrlarini qayta baholashi, mavjud dunyoqarashini tanqidiy ko'z bilan tahlil qilishi hamda yangi bilimlar asosida yangi nuqtai nazarni shakllantirishiga olib keladi [1; 9-b]. Aynan mana shu ichki kognitiv o'zgarishlar orqali o'quvchilarda **refleksiya, tanqidiy fikrlash, muqobil qaror qabul qilish, va shaxsiy rivojlanishga intilish** kabi metakompetensiyalar rivojlanadi [3; 29–30-b]. Bu kompetensiyalar bugungi ta'limda raqobatbardosh, ijtimoiy faollikka ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.
- ✓ **Ikkinchidan**, transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonlari o'quvchilarni o'z bilimlarini real hayotda amaliy qo'llashga undaydi. Jumladan, **muammoli vaziyatlar, loyihaviy metodlar, rolli o'yinlar, mustaqil izlanish topshiriqlari** orqali o'quvchi o'rganilgan bilimni faqat yodlab olish emas, balki uni hayotiy kontekstda tatbiq etishni mashq qiladi [2; 46-b]. Bu esa nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki shaxsning funksional savodxonligini oshiradi va kasbiy ixtisoslashuv uchun asos yaratadi. Shuningdek, transformativ o'qitish jarayonlarida o'quvchi o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos faoliyatni amalga oshirish orqali ta'limga nisbatan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.
- ✓ **Uchinchidan**, kompetentlik yondashuvi ta'limda faqat bilim darajasini emas, balki **bilim, ko'nikma va munosabatlar (BKM)** triadasini bir butunlikda rivojlantirish va baholashga yo'naltirilgan. Transformativ ta'lim texnologiyalari esa aynan ushbu uchlikning har bir komponentini faol tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, refleksiya orqali bilimlar mustahkamlanadi, interaktiv faoliyatlar orqali ko'nikmalar shakllanadi, mustaqil tahlil va baholash esa o'quvchining munosabatini o'zgartiradi [4; 48–49-b]. Bu holat o'quvchini o'zi uchun muhim bo'lgan ma'lumotni mustaqil izlab topish, uni qayta ishlash va hayotga tatbiq etish qobiliyatini oshiradi.

Umuman olganda, transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o'zaro integratsiyalashganda ta'lim jarayoni yanada mazmunli, samarali va shaxsga

yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi. Bu yondashuv o'quvchining faqatgina bilim oluvchidan faol ishtirokchi, o'z rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan subyektga aylanishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transformativ yondashuv bilan kompetentlik yondashuvining birlashtirilgan modeli talabaning tanqidiy fikrlash, o'zini baholash, axborotdan foydalana olish va jamoaviy ishlash kompetensiyalarini samarali rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o'zaro uyg'unlashgan holda talabaning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatayotgani quyidagi natijalar orqali aniqlandi:

### **1. Refleksiya va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi**

Transformativ metodlardan foydalangan holda tashkil etilgan darslarda talabalar **avvalgi bilim va tajribalarini qayta tahlil qilish**, ularni yangi ma'noda idrok etish, muammoli vaziyatlarga nisbatan **mustaqil yondashuvni shakllantirish** imkoniga ega bo'lishdi. Bu ularning reflektiv fikrlash darajasini oshirdi va o'zini baholashga bo'lgan e'tibor kuchaydi [2; 45–46-b].

### **2. Real kontekstda o'rganish orqali kompetensiyalarni shakllantirish**

Loyiha asosida o'qitish, rolli o'yinlar, amaliy topshiriqlar va interaktiv muhokamalar orqali talabalar o'z bilimlarini real hayotiy kontekstda qo'llashga o'rgandilar. Bu esa **kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni amaliyotda rivojlantirishga** xizmat qildi [3; 47-b].

### **3. Ta'lim subyektlari o'rtasida faol muloqot vujudga keldi**

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'limda talabalar faqat tinglovchi emas, balki muhokama, izlanish, taklif kiritish, bahslashish orqali faol ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Bu ular orasida **ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirdi va dars jarayonini shaxsga yo'naltirilgan formatga olib keldi [4; 48–49-b].

### **4. Axborot va raqamli kompetensiyalar rivojlandi**

Transformativ o'qitishda zamonaviy texnologiyalar (taqdimotlar, onlayn muhokamalar, raqamli topshiriqlar) keng qo'llanilgani sababli talabalar **axborot bilan ishlash, texnologiyadan oqilona foydalanish va digital refleksiya yuritish** ko'nikmalarini o'zlashtira boshladilar [5; 50-b].

### **5. O'qituvchi rolining o'zgarishi**

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, transformativ yondashuv o'qituvchini passiv bilim yetkazuvchidan faol yo'naltiruvchi, maslahatchi va hamkor roliga o'tkazadi. Bu esa o'qituvchining ham kasbiy kompetensiyasini oshiradi, dars jarayonini muammoli, ijodiy va reflektiv tusga keltiradi [1; 9–10-b].

### **Xulosa.**

Transformativ ta'lim texnologiyalari kompetentlik yondashuvining nazariy va amaliy asoslari bilan to'liq uyg'unlashadi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonidagi passiv qabul qiluvchilikdan chiqib, mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan, ijodiy yondashadigan va real hayotdagi murakkab vaziyatlarga tayyor bo'lgan shaxslar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Transformativ ta'lim jarayoni o'quvchilarda o'z-o'zini anglash va o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, ularni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yo'naltiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida transformativ yondashuvni samarali tatbiq etish uchun bir nechta muhim chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Jumladan, o'qituvchilarni tayyorlash va

ularni qayta tayyorlash dasturlariga innovatsion pedagogik metod va texnologiyalarni kiritish, transformativ ta'lim konsepsiyasining nazariy asoslarini chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yangi yondashuvlarning amaliy jihatlar, xususan, interaktiv darslar, loyihaviy ishlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv mashg'ulotlarni o'quv jarayoniga kiritish, o'qituvchilar tomonidan sinovdan o'tkazilishi va samaradorligi baholanib borilishi lozim. Shuningdek, ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda transformativ yondashuvning kompetentlik yondashuvi bilan uyg'unligini hisobga olgan holda, ta'limning mazmuni va shaklini doimiy ravishda yangilab borish muhimdir. Bu esa nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham kasbiy o'sishiga va ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Natijada, transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvini birlashtirgan holda zamonaviy ta'limni tashkil etish nafaqat ta'lim jarayonini samarali qilish, balki o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur yondashuvlarni ta'lim tizimining har bir bo'g'inida, xususan, o'qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirish jarayonlarida keng joriy etish zarur.

Oliy ta'limda transformativ ta'lim texnologiyalarini joriy etish nafaqat talabani mustaqil shaxs sifatida shakllantiradi, balki universitetlar uchun raqobatbardosh o'quv dasturlarini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida darslar tashkil etilishi, o'qituvchilar malakasini oshirish, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, transformativ ta'lim texnologiyalari va kompetentlik yondashuvi o'zaro metodologik va amaliy jihatdan uyg'unlashgan bo'lib, zamonaviy oliy ta'limda talab qilinadigan shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Har ikki yondashuv o'quvchini faollashtirish, reflektiv tafakkurni rivojlantirish, real hayotdagi muammolarni mustaqil hal qilishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Transformativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim faoliyati talabalarni o'z bilim va ko'nikmalarini ijtimoiy, madaniy, raqamli va fuqarolik kontekstida qo'llashga o'rgatadi. Bu esa kompetentlik yondashuvining asosiy maqsadlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ayniqsa, talabaning mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini anglash kabi kompetensiyalarini shakllantirishda transformativ metodlar samarali ekani isbotlandi. Shuningdek, transformativ ta'lim texnologiyalarini oliy ta'limga tatbiq etish o'qituvchidan yangicha metodik yondashuv, pedagogik refleksiya va motivatsion muhit yaratishni talab qiladi. Bu pedagogning kasbiy kompetensiyasini ham transformatsionalaydi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed*. New York: Continuum.
2. Inghart, R. (1997). Постмодерн: меняющиеся ценности и изменяющиеся общества // *Полус*, №4, С. 6–32.
3. Kolb, D. A. (1984). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall.
4. Mezirow, J. (1997). *Transformative Learning: Theory to Practice*. *New Directions for Adult and Continuing Education*, 74, 5–12.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. (2018). *"Ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"*.
6. Turaev, R., Karimova, D. (2022). Kompetentlik yondashuvi asosida ta'limni modernizatsiyalash. *Ta'lim innovatsiyalari*, 3(2), 45–50.



- 
7. Yusupov, M. (2021). *Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti. – 120 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 8 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).